



ADABIYOT DARSLARIDA TARIXIY-BADIIY ASARLARDAN FOYDALANISH

Satimov Muhammadsobit Dilshodbek o'g'li

ADU o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5701073>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 05- Noyabr 2021

Chop etildi: 10- Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

tarixiy-badiiy adabiyotlar,
omillar, tamoyillar,
usullar, xolislik, ilmiylik,
mezonlar.

ANNOTATSIYA

Maqolada adabiyot darslarida tarixiy-badiiy asarlardan foydalanishning mazmuni va mohiyati, usullari va ahamiyati bo'yicha fikr bildirilgan. Adabiyot ta'limida tarixiy manbalardan foydalanishning usullari, to'g'ri tanlay bilish, asar g'oyasini ta'lim-tarbiyaviy tomondan chuqur o'zlashtirishning muhim omillarini tanlashda foydalaniladigan mezonlar asoslab o'tilgan.

Adabiy matnlarga - darslik matni, tarixiy hujjatlar, asarlar, ilmiy-ommabop va badiiy, tarixiy adabiyotlar va boshqalar kiradi. Bosma matnlar ta'lim oluvchilar tarixiy bilimlarining asosiy manbai bo'lgani kabi ta'lim beruvchining bilim manbaini, bayonining asosini tashkil etadi. Tabiiydirki, o'qituvchi shu manbalardan to'g'ri va unumli foydalangan taqdirdagina, uning bayoni didaktika talablariga, umuman tarix ta'limining yuksak talablariga javob berishi, o'qituvchi bayonining o'quvchilarga tushunarli, mazmundor, maroqli, g'oyaviy va ilmiy jihatdan ishonarli, obrazli va ta'sirli bo'lishi mumkin. Tarixiy-badiiy adabiyotlar tarixiy jarayonlarni o'zlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Adabiyot darslarida tarixiy-badiiy asarlardan foydalanishda ta'lim oluvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish va ularning,

fanga oid qiziqishlarini ham inobatga olish kerak.

Badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish o'qituvchi bayonining ko'rsatmaliligini ta'minlaydi, uni aniqlashtiradi, o'quvchilar o'tmish haqida jonli tasavvur hosil qiladi. Badiiy adabiyotning roli bu bilan tugamaydi. Ma'lum davrning ijtimoiy hodisalarini real aks ettiruvchi haqiqiy badiiy obraz, tipik obrazlar o'sha ijtimoiy hodisaning mohiyatini ifodalaydi. O'qituvchi bayonida badiiy adabiyotdan olingan namunalardan bayonning emotsional bo'lishini ham ta'minlaydi, o'rganilayotgan tarixiy voqealarga nisbatan o'quvchilarda xayrixohlik, zavqlanish, afsuslanish kayfiyatlarini, nafrat yoki hayrat tuyg'ularini tug'diradi. Adabiyot darslarida foydalaniladigan badiiy asarlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:



-o'rganilayotgan davrning adabiy yodgorliklari;

-tarixiy belletristik asarlar.

Adabiy yodgorliklariga tarixiy hodisa va voqealarni o'z zamondoshlari yozib qoldirgan asarlar kiradi. Bu guruhga kirgan asarlar tarix fani uchun o'tmishning o'ziga xos manbai bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyot yodgorliklari yozib olingan og'zaki ijodiyot asarlarini: afsonalar, dostonlar, qo'shiqlar, masallar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunday asarlarning juda ko'pida voqelik qayta-qayta ishlangan, xalq fantaziyasi bilan boyitilgan va bezatilgan bo'ladi. Voqelikni ob'ektiv suratda tasvir qilgan asarlar, yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan taqdirda o'zoq o'tmishni, masalan qadimgi Gretsiya tarixini yoritib berishda ana shunday asarlardan ham tanqid g'alviridan o'tkazib foydalaniladi. Gomer davridagi jamiyat tarixi Gomer dostonlaridan va qisman Grek afsonalaridan olingan epizodlarni tahlil qilish asosida ta'riflab beriladi, Badiiy yodgorliklarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, ular o'z zamonidagi jamiyatning g'oyasini aks ettiradi va buni o'quvchilarning tushunib olishlariga tarixiy hodisalar va arboblarning yorqin badiiy obrazlarini ravshan tasavvur qilishlariga yordam beradi. Shu bilan birga o'quvchilar badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi roli bilan ham aniq misollarda tanishadilar. Masalan, "Roland haqida qo'shiq" nomli asarda Karlning o'zi va uning jangchilari ideallashtirilib u olib borgan urushlar tarixi buzib ko'rsatiladi. Shu bilan birga, bu asar ritsarlarning mardligi, o'z senyoriga sodiqligi, fidokorligi bilan, shuningdek o'rta asrlar adabiyotining ana shu turi bilan tanishtiradi. "Roland haqida qo'shiq" shu adabiyot turining eng yaqqol namunasi. Roland uydirma obraz bo'lsada undagi

ajoyib fazilatlar o'quvchilarga ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. O'rta asrlarda yaratilgan "Tulki haqida roman" dan shaharliklarning feodallarga munosabatini, ular o'rtasida keskinlashib borayotgan kurashini hamda uni yoritishda hajviydan qanday foydalanilganligini o'quvchilar tushunib oladi. Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda yaratilgan afsonalardan, qahramonlik dostonlari va boshqa adabiy asarlardan tarix darslarida foydalanganda, o'quvchilarni bu asarlarga tanqidiy ko'z bilan qarashga o'rgatib borish kerak. Shuningdek, ularga bu asarlar o'tmishdan qolgan badiiy yodgorliklar ekanligini, ulardan o'sha davrlarda bo'lib o'tgan voqealarga oid ba'zi ma'lumotlardan foydalanish va qay tariqa foydalanish mumkinligini, bu asarlarning qaysi joyi uydirma va qaysi joylarida real voqelik aks etganini tushuntirish lozim.

Qahramonlik eposlarida turkiy xalqlarga xos qahramonlik, vatanparvarlik, Shiroqning - jasurlik, To'marisning - xalqparvarlik, sevgida sadoqat Alpomish, Tohir va Zuhra, Yusuf va Zulayho, Farxod va Shirin obrazi tarbiyaviy ahamiyati kattadir, jangnoma xarakteridagi dostonlarda o'tmish qahramonlar, tarixiy va hayotiy haqiqatning aks etadi, pandnoma xarakteridagi dostonlarda kishining kundalik hayotida amal qilishi lozim bo'lgan xulq-atvor mezonlari diniy va dunyoviy axloq qonun-qoidalari Qutadg'u bilig sharq xalqlarining turmush tarzi, tarixiga xos voqealar tasviri ko'proq o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham bu janrlarda yaratilgan adabiyot namunalari ta'lim oluvchilarga ma'naviy madaniyatimizning tarixiy boy qirralari haqida sharq xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqining o'tmishi, qadriyatlarini, axloq-odob mezonlari haqida



atroflicha ma'lumot berish imkoniyatiga ega.

Belletristik asarlarga — tarixiy romanlar, tarixiy temalarda yozilgan povestlar, o'rganiladigan davr haqidagi badiiy asarlar, hikoyalar kiradi. Bu asarlar tarixiy manbalar, memuarlar va hujjatlar, ilmiy tekshirish ishlari va monografiyalarni o'rganish asosida yozilgan bo'lib, ularda o'tmish voqealari badiiy tasvirlar va badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Belletristika tarix fani uchun hujjatli manba bo'la olmasada, o'quvchilarga o'tmishni aniq tushuntirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi o'z bayonida badiiy adabiyotlardan foydalanish bilan birga o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari badiiy asarlarni o'qishlari ustidan olib boradigan ishlariga doim nazorat qilib boradi. Badiiy adabiyot vositasida ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogika talablaridan biri, uning tarbiyaviy ta'sir kuchidan foydalanishda unga davr nuqtai nazaridan yondashishdir. Klassik adabiyot namunalari mazmunida chuqur falsafiylik, farosatlilik ta'lim oluvchini uzoq o'tmishga sayohat qildiradi.

Mualliflar o'z davrlarining turmush tarzlarini, hayotiy muammolarini, falsafiy ildizlarini badiiy ifodalashga, shu usuldan foydalangan holda xalqning moddiy va ma'naviy hayotini bir o'z bo'lsa-da, tashvishli masalalardan, bezovta kechinmalardan yiroqlashtirishga muvaffaq bo'lganlar. Klassik adabiyot namunalari katta qismi poetik tarzda bunyod etilgan bo'lib, ular asosan g'azal, ruboiy, fard, tuyuq, to'rtlik, qissa, hikoyat, doston, qasida, muhammaslardan iborat, shuning uchun o'quvchidan nozik did, qunt, teran fikr asosida ularni o'rganish talab etiladi. Ahli zamon o'rtasidagi insonparrvarlik, shirinsuxanlik, qadr-qimmat, do'stlik va birodarlik, Vatan ishq, xalq farovonligi va komil inson masalasi klassik adiblar ijodidagi bosh mavzusi hisobladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qitish jarayonida badiiy manbalardan foydalanish usullarining samaradorligi ta'lim oluvchi tomonidan ta'lim beruvchilarning tarixiy ma'lumotlarni bilish faoliyatini o'qitish vazifalari va maqsadlariga muvofiq tashkil eta olish ko'nikmalarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

References:

1. Matchonov S. Adabiyot darslarida Tahlil va talqin uyg'unligi // Til va adabiyot ta'limi. 7-son, 2020.
2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik, 2 kitob. – Toshkent, 1980.
3. Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. – Toshkent, 1961.
4. Mirzayev I. Badiiy uslub sehri. – Samarqand:2000.
5. Rasulov A. Badiylik – bezavol yangilik. – T: Sharq, 2007.
6. Qo'shjonov M. Tarix saboqlari haqida roman// O'zbekiston madaniyati. – 1978.